



**SUKUK BOZORINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XORIJUY MAMLAQATLARNING
ILG'OR TAJRIBALARI**

PhD Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Annotatsiya. Maqolada islomiy qimmatli qog'oz hisoblangan sukuklar tahlili olib borilgan. Sukuk emissiyasi va muomalasi borasida xorijiy mamlakatlar tajribasi o'r ganilgan. Mamlakatlar va yillar kesimida berilgan statistik ma'lumotlar bo'yicha muallif tomonidan o'z munosabati va fikrlari izohlangan. Tadqiqot natijasi bo'yicha mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun muhim hisoblangan xulosalar keltirilgan. Maqola sukuk instrumentidan foydalanish samaralariga urg'u berilgan.

Kalit so'zlar: qimmatli qog'oz, sukuk, fond bozori, moliya.

ПЕРЕДОВОЙ ОПЫТ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН В РАЗВИТИИ РЫНКА СУКУК

к.э.н. Аброров Сиро жиддин Зухриддин уғли
Ташкентский государственный экономический университет,
Международной исламской академии Узбекистана

Аннотация. В статье анализируются сукук, которые считаются исламскими ценностями бумагами. Изучен опыт зарубежных стран по выпуску и обращению сукук. Автор объяснил свое отношение и мнения относительно статистических данных, приведенных в разрезе стран и лет. По результатам исследования представлены выводы, которые считаются важными для экономики нашей страны. В статье подчеркнуты преимущества использования инструмента сукук.

Ключевые слова: акции, сукук, фондовый рынок, финансы.

BEST PRACTICES OF FOREIGN COUNTRIES IN DEVELOPING THE SUKUK MARKET

PhD Abrorov Sirojiddin Zukhriddin ugli
Tashkent State University of Economics,
International Islamic Academy of Uzbekistan

Abstract. The article analyzes sukuk, which are considered Islamic securities. The experience of foreign countries regarding the issuance and circulation of sukuk has been studied. The author explained his attitude and opinions on the statistical data given in the cross-section of countries and years. Based on the results of the research, conclusions are presented that are considered important for the economy of our country. The article emphasizes the benefits of using the sukuk instrument.

Keywords: stock, sukuk, stock market, finance

Kirish.

O'zbekistonda keyingi yillarda sukuklarga qiziqish ortib borayotgani sezilsa-da, bu turdag'i islomiy qimmatli qog'ozlar amaliyatga joriy etilmagan. Shunga qaramay, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida mamlakatimizda islam moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo'yicha huquqiy bazani yaratish vaqt(soati kelganligini ta'kidlab o'tdi. Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-apreldagi "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6207-soni Farmonida islam moliyalashtirish tamoyillari asosida "Sukuk" obligatsiyalarini joriy etish bo'yicha alohida vazifa belgilangan. Aytish mamkinki, kapital bozori uchun islam qimmatli qog'ozlarining ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Adabiyotlar sharhi.

“Oltin va islom qimmatli qog’ozlari o’rtasidagi bog’liqligi” haqidagi maqolasida 2006–2019-yillar davomida oltin va islom qimmatli qog’ozlari o’rtasidagi daromadning dinamik bog’liqligini ko’rib chiqishgan (Maghyereh va Abdoh, 2021). Buning natijalari shuni ko’rsatganki, oltin o’rtalish uzoq muddatli istiqbolda islom portfellari uchun diversifikator, to’siq yoki xavfsiz vositasi sifatida ishlamaydi, ayniqsa oltin bozorining pasayish va ko’tarilish sharoitida degan fikrni ilgari surgan.

Islom fond indekslari va COVID-19 pandemiyasiga oid tadqiqotda COVID-19 pandemiyasi sabab, pandemiya va epidemiyalar uchun noaniqlik indeksini (UPE) o’z ichiga olgan birja daromadlari uchun yagona omilli bashoratli modelni yaratgan (Salisu va Shaik, 2022). Unda islomiy aksiyalarning an’anaviylari ko’rsatkichlari bilan solishtirganda himoyasizmi yoki yaxshiroq xedj potentsialiga egami yoki yo’qligini tekshirish mumkin. Xususan, COVID-19 pandemiyasi davrida, garchi islom aksiyalarining xedjlash samaradorligi pasayayotgandek tuyulsa-da, bu an’anaviy aksiyalarning undanda yomon ko’rsatkichlariga qaraganda yaxshiroq. Natija neft narxi, xalqaro bozor konyukturasi noaniqligi uchun modelni nazorat qilgandan keyin ham bir xil bo’lib qoladi. Biz UPE ning prognoz ko’rsatkichlarini namunaviy model bilan taqqoslash orqali namunadagi va namunadan tashqari davrlar uchun ham bashorat qilish kuchini baholaymiz. Olimlarning natijalari shuni ko’rsatdiki, aksiyalarni baholashda UPE ma’lumotlarini hisobga olish investitsiya qarorlari uchun juda muhimdir.

“Malayziya sukuk bozoridagi standart foydalanuvchi profili” nomli maqolalarida quydagicha fikr bildirishgan (Kamarudin va boshq., 2014). Sukuk defolti masalasiga so’nggi yillarda, ayniqsa jahon iqtisodiyotiga ta’sir qilgan global moliyaviy inqirozdan keyin alohida e’tibor qaratildi. Ushbu tadqiqot Malayziyadagi sukuk to’lovlarini to’xtatuvchilarni tahlil qiladi. Ushbu tadqiqot 2000-yildan 2010-yilgacha bo’lgan sukuk emitentlarini o’z ichiga oladi. Tanlangan sukuk emitentlari haqidagi ma’lumotlar ularning yillik hisobotidan olingan. Tadqiqot shuni ko’rsatdiki, sukuk defoltining eng ko’p soni 2009-yilda sodir bo’lgan. Dastlabki reytingda aralash natija aniqlandi, chunki defolt qisqa muddatli va uzoq muddatli instrumentlar uchun sodir bo’lgan.

Bizning avvalgi tadqiqotlarimizda ham sukukning turli jabhalarida izlanishlar olib borilgan (Abrorov, 2021; Abrorov va Qoraboyev, 2020; Valiyev va Abrorov, 2019).

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada ilmiy abstraktsiyalash, empirik, tasviriy statistika, ekspert baholash, guruhlashtirish, dinamik tahlil usullaridan foydalanilgan.


Tahlil va natijalar muhokamasi.

Islom moliyasi tizimini avvaliga musulmon ko’p istiqomat qiluvchi mamlakatlari joriy etgan bo’lsa, keyinchalik esa muqobil tizim sifatida jahoning qolgan hududlariga tarqala boshladi. Hozirgi kunda iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda ham bu tizimdan samarali foydalanilmoqda. Bu esa uning samari ortib borayotganindan dalolatir.

Islom moliyasi aktivlarining mamlakatlar kesimidagi taqsimatiga ko’ra, 2021-yilda Eron 1,2 trln. AQSH dollarini tashkil etgan. Bu jami aktivlarning 31,2 %iga mos keladi (1-rasm). Mazkur ko’rsatkichlar Saudiya Arabistonida mos ravishda 896 mlrd. AQSh dollari (22,6 %), Malayziyada 650 mlrd. AQSh dollari (16,4 %) va BAAda 252 mlrd. AQSh dollari (6,4 %)ni tashkil etgan.


“Thomson Reuters” agentligi tomonidan chop etilgan “Islamic finance development report 2022” ma’lumotlariga ko’ra, jahonda 136 ta mamlakat islom moliyasini to’liq yoki ayrim elementlarini joriy etgan bo’lib, ularning tarkibida ko’p miqdorda musulmon aholi yashovchi mamlakatlardan tashqari Buyuk Britaniya (aholisining 4,4 %ini musulmonlar tashkil etadi), AQSH (0,9 %), Singapur (15,6 %), Shveysariya (5,2 %), Kanada (3,2 %), Avstraliya (3,2 %), Fransiya (4 %), Germaniya (3,5 %) va Rossiya (15 %) (cia.gov) singari mamlakatlarda ham islom moliyasi vositalaridan foydalanilmoqda.

O’rganilayotgan davrda jami emissiyaning 54,5 % yoki 877,4 mlrd. AQSh dollari Malayziya hissasiga to’g’ri keladi (2-rasm). Malayziya 8,5 ming marotabidan ortiq emissiyani amalga oshirgan bo’lib, bu o’z navbatida, 1155 marotaba sukuk emissiya qilgan Bahrayndan 8 barobar ko’pdir. Malayziya emissiyalarini asosan milliy valyutada amalga oshirgan. Chiqariluvlar qiymati bo’yicha ikkinchi yirik ko’rsatkich Saudiya Arabistonida bo’lib, u 216,8 mlrd. AQSh dollari yoki 13,5 %ni tashkil etadi. Shundan so’ng Indoneziya 148,3 mlrd. AQSh dollari (9,2 %), BAA 102,2 mlrd. AQSh dollari (6,3 %) va Turkiya 84,7 mlrd. AQSh dollari (5,3 %) qiymatidagi sukuk chiqargan. Mazkur 5 mamlakatning jahondagi sukulklarning deyarli 90 %iga egalik qiladi. Shuningdek, O’rta Osiyo mamlakatlaridan Qozog’istonda ham 77 mln. AQSh dollari qiymatida sukuk emissiyasi amalga oshirilgan.




**1-rasm. Islomiy moliyaviy aktivlarning ayrim mamlakatlar kesimidagi taqsimoti
(2021-yil, mlrd. AQSH dollar) (IFDI, 2022)**

Tadqiqotlar ko'rsatmoqdakи, chiqariluvlar soni bo'yicha Turkianing nisbiy ulushi jadallik bilan ortib borib, birgina 2021 yilning o'zida 447 ta chiqariluv amalga oshirgan va Malayziya (775 marotaba chiqariluv)dan keyingi o'rinni egallagan.



**2-rasm. Ayrim mamlakatlardagi sukuk emissiyasi hajmi
(2001-2021 yillar, mlrd. AQSH dollar) (IIFM, 2022)**



3-rasm. Sukuk emissiya qiluvchi mamlakatlar sonining o'sish tendensiyasi (IIFM, 2022)

Dunyo bo'yicha sukuk emissiya qilgan mamlakatlar soni jami 36 ta bo'lib (3-rasm), mintaqalar bo'yicha tahlil qilinganda sukuklarning eng katta hajmi Osiyoga to'g'ri keladi va 92,9 %ni tashkil etadi. 2000-yilga qadar jahon bo'yicha faqat Malayziyada sukuk chiqarilgan bo'lsa, 2010-yilda mamlakatlar soni 17 taga va 2018-yil yakuniga kelib 36 taga yetgan hamda joriy davrga qadar o'zgarmagan. Ammo Xalqaro islom moliya bozori (IIFM) tashkilotining 2019-yilgi hisobotida Eron sukuk emissiya qilgan mamlakatlar qatorida keltirilmagan. Vaholanki 2018-yilgi va undan avvalgi hisobotlarda bu mamlakat ma'lumotlari berilgan edi.


Sukuk emissiyasini amalga oshirgan 36 mamlakat tarkibida AQSh, Buyuk Britaniya, Lyuksemburg, Germaniya, Yaponiya va Fransiya singari iqtisodiyoti taraqqiy etgan mamlakatlar qayd etilganligiislomiy qimmatli qog'ozlarni an'anaviy moliya bozorlarida ham joriy etish mumkinligini yaqqol ko'rsatadi. 2021-yil dekabr holatiga Buyuk britaniya tomonidan 2,5 mlrd. AQSh dollari qiymatidagi sukuklar emissiya qilingan. AQSh 1,4 mlrd. AQSh dollari, Lyuksemburg 280 mln. AQSh dollari, Germaniya 208 mln. AQSh dollari miqdorida chiqaruvlarni amalga oshirgan. Fransiya esa bir marotaba 650 ming AQSh dollarlik sukuk emissiya qilgan.

So'nggi yillarda Buyuk Britaniyada islom moliyasi, xususan, islomiy qimmatli qog'ozlar sektori tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Hozirgi kunda Londonda jahondagi kam sonli islom moliyasi hablaridan biri tashkil etilganligi yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi. Boshqa ikkita hab Malayziya va BAAGa joylashgan.

Tadqiqotlardan ma'lumki, jahon amaliyotida sukuk faoliyati bo'yicha eng katta ulush hamda tajriba Malayziga hissasiga to'g'ri keladi. Sukuklarning qiymati bo'yicha navbatdagi o'rirlarda turuvchi Saudiya Arabistoni va Indoneziya yoki sukuk chiqarish bo'yicha tajribani aks ettiruvchi ko'rsatkich – emissiyalar soni bo'yicha ikkinchi bo'lgan Turkiya mamlakatlarining tajribasini o'rganish e'tiborni jalb qiladi. Saudiya Arabistoni iqtisodiyoti neft-gaz sanoatiga yuqori darajada bog'liqligi sababidan uni mazkur guruhdan chiqarib tashlab qolgan mamlakatlarning tajribasini o'rganish maqsadga muvofiq.

Malayziyada 2001-yildan boshlab muntazam sukuk chiqarilgan bo'lsa, so'nggi 5 yillikda sukuklar emissiyasi faol nuqtaga yetdi (4-rasm). Jahon miqyosida Malayziya emissiya qilgan sukuk hajmining ulushi balandligi sabab, mazkur mamlakatdagi o'zgarish bevosita jahon tendensiyasiga ham ta'sir qiladi. 2015-yilga qadar o'sish tendensiyasi kuzatilgan bo'lsa, shu yilda Malayziya markaziy banking qisqa muddatli sertifikatlarga taalluqli siyosatining o'zgarishi sabab keskin kamayish kuzatilgan. Emissiyalarning asosiy qismi nodavlat sukuklari va uzoq muddatli davlat sukuklariga tegishli bo'lgan.


Malayziyadagi ichki sukuk bozori iqtisodiy faoliyatni moliyalashtirish va jamg'armalarga vositachilik qilishda muhim rol o'ynab kelmoqda, bozorning barcha segmentlarida mablag' resurslar jamg'arish sezilarli yaxshilandi. Malayziyada 2022-yilda muomalada bo'lgan sukuklar va an'anaviy obligatsiyalarni birgalikda taqqoslash, 63,2 foizi sukuk 36,7 foizi obligatsiyalar ekanligini ko'rsatadi (Security Commission of Malaysia, 2022). Bundan ko'rindaniki, Malayziyada ikki komponentli ya'ni duolistik moliya tizimidan samarali foydalanib kelinmoqda. Shuningdek Malayziya islom kapital bozori umumiy kapital bozorining 64,4 foizini tashkil etadi.



**4-rasm. Malayziyada sukuklarning yillar kesimidagi emissiyasi
(mlrd. AQSh dollar) (IIFM, 2022)**

2021-yilda jami sukuk emissiyasi obligatsiyalar va sukuk emissiyalarining 62,9 foizini (2020-yilda 61,1%), muomaladagi jami sukukning 63,4 foizini (2020-yil 63,3%) tashkil etgan edi. 2021-yilda korporativ sukuk emissiyasi jami korporativ obligatsiyalar va sukuk emissiyasining 80 foizini (2020-yil: 73,6 foiz), 2021-yil holatiga ko'ra korporativ sukuk muomalasi esa korporativ qarzlarning 81,4 foizini (2020-yil: 81,03 foiz) tashkil etgan edi.

Malayziyada ijtimoiy loyihalar uchun ham (SRI) sukuklar orqali investitsiyalar jalg qilinadi. 2015-2021-yillarda mobaynida shunday lohiyalarni moliyalashtirish uchun 21 ta emissiya amalga oshirilgan, shundan 9 tasi 2021-yilga to'g'ri keladi. 2021-yilda 669 mln. AQSh dollari qiymatida korporativ ijtimoiy investitsiya sukulari chiqarilgan bo'lib jami korporativ sukuklarning 3 foizdan ortiqrog'ini tashkil qiladi. Shuningdek muomaladagi korporativ ijtimoiy investitsiya sukulari 1,9 mlrd. AQSh dollaridan oshdi. 2020-yilda deyarli 1,3 mlrd. AQSh dollari qiymatida edi.




**5-rasm. Indoneziyada sukuklarning yillar kesimidagi emissiyasi
(mlrd. AQSh dollari) (IIFM, 2022)**

Sukuk emissiyasi hajmi bo'yicha jahonda uchinchi o'rinda turuvchi Indoneziya 2021-yil yakuniga kelib deyarli 148,3 mlrd. AQSh dollari qiymatida sukuk chiqargan bo'lib jami global emissiyaning 9,2 foizini tashkil etadi. Indoneziyada ilk sukuk 2002-yilda telekommunikatsiya kompaniyasi hisoblanuvchi PT Indosat tomonidan 17,5 mln. AQSh dollari qiymatidagi mudorabaga asoslangan korporativ sukuki sifatida emissiya qilingan. Mazkur chiqariluv 5 yillik muddat bilan milliy valyuta (indoneziya rupiysi)da amalga oshirilgan. Shundan so'ng Indoneziyada har yili sukuk emissiyasi amalga oshirib kelingan. O'sish tendensiyasi 2008-yildan so'ng sezilarli darajada ko'tarilgan. Shu yili mamlakatda davlat sukuklarini taritbga soluvchi qonun qabul qilingan. 2021-yil yakuniga ko'ra Indoneziyada 634 ta chiqariluv amalga oshirilgan. Davlat tomonidan chiqarilgan sukuklar asosan ichki bozorga milliy valyutada chiqarilgan bo'lib, xorijiy valyuta (AQSh dollari)dagi emissiyalar bir necha barobar kam va mos ravishda 84 va 16 foizlarni tashkil etadi.

Indoneziyada sukuk chiqarilishi bilan bog'liq o'rganishlar natijasida mamlakatda sukuk bozori yanada rivojlanish borasida xulosalar qilish mumkin. Kelgusi yillarda davlat tomonidan ekologiya, ijtimoiy soha va boshqaruv (ESG)ga oid investitsiyalarni sukuklar orqali jalb qilish uchun muhitni yanada jozibador qilish harakatlarini olib bormoqda. Bugungi kunda Indoneziya hukumati vaqfga asoslangan sukuklarning raqamli transformatsiyasi orqali islom ijtimoiy va tijoriy moliyasini o'zaro integratsiya qilish harakatlarini amalga oshirmoqda. Shuningdek ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirishga asoslangan sukuklar uchun qonunchilik normalarini maqbullashtirishga harakat qilinmoqda.

Vaqfga asoslangan sukuklar ilk marotaba 2020-yil Indoneziyada davlat tomonidan chiqarilgan bo'lib, hayriyaga yo'naltiriluvchi mablag'larni ham o'zida mujassam etadi. Jalb qilingan barcha resurslar mamlakatdagi vaqf aktivlarni ko'paytirishga xizmat qiladi.



**6-rasm. Turkiyada sukuklarning yillar kesimidagi emissiyasi
(mlrd. AQSh dollar) (IIFM, 2022)**


Turkiyada 2010-yildan sukuklar emissiyasi boshlangan. Shu yili davlat tomonidan 100 mln. AQSh dollari qiymatida ijara sukuki chiqarilgan (6-rasm). Shundan so'ng sukuk Turkiya qimmatli qog'ozlar bozorida foizsiz investitsiya jalb qilish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatib berdi. 2011-yilda 1 ta (350 mln. AQSh dollari) va 2012-yilda 2 ta chiqariluv (2 405 mln. AQSh dollari) amalga oshirilgan. Shundan so'ng chiqariluvlar soni sezilarli ortib 2021-yil yakunida chiqariluvlar soni 1155 taga yetgan va jami qiymati 84,7 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan. Shundan 17,8 mlrd. AQSh dollarlik 447 ta chiqarilushi birligina 2021-yil hissasiga to'g'ri kelgan.

Turkiyada ijara sukuki orqali davlat-xususiy sherikchiligi samarali yo'lga qo'yilgan. Mamlakatda davlat tomonidan chiqarilgan sukuklar ulushi va ichki bozor uchun chiqarilgan sukuklar ulushi ustuvorlikni kasb etadi.

O'tgan davr mobaynida sukuk chiqarish uchun normativ-huquqiy bazani maqbullashtirish uchun bir qator ishlar amalga oshirildi. 2010-yili chiqarilgan sukuk foizli moliyalashtirish shaklida tartibga solingan. 2011-yilda ijara sukuk va oddiy moliyaviy istrumentlar o'rtasidagi soliq bo'yicha tengsizlik bartaraf etilgan. Kapital bozori to'g'risidagi qununiga muvofiq sukukka oid qoidalar 2012-yil e'lon qilingan va 2013-yilda Kapital bozori to'g'risidagi yangi tahrirdagi qonun bilan Sukukka oid qoidalar to'liq yangilangan. Sukuk emissiyasini amalga oshirish bilan bog'liq to'siqlar bartaraf etilgandan so'ng sukukning boshqa turlari (vakala, murobaha, mudoraba, mushoraka va istisna)ni chiqarish imkoniyati yaratilgan.

Sukuk chiqariluvini qo'llab-quvvatlash maqsadida 2016-yilda soliq va yig'imlardan ozod qilish bilan bog'liq o'zgarishlar barcha turdag'i sukuklar uchun joriy qilingan. Shuningdek Turkiya kapital bozori kengashi qimmatli qo'g'ozlar emissiyasini ro'yxatdan o'tkazish bilan bog'liq yig'imlarni ikki barobarga kamaytirgan. Bu o'z navbatida sukuklar chiqarish bilan bo'g'liq xarajatlarni kamaytirishga ta'sir ko'rsatgan.

2022-yil fevral oyida Kapital bozori kengashi Xalqaro kapital bozori assotsiatsiyasining yashil obligatsiya tamoyillariga muvofiq yashil va barqaror obligatsiya va sukuklar uchun qo'llanmani e'lon qilgan.



7-rasm. Turkiyada korporativ sukuklar emissiyasi (mln. AQSh dollarri) (IIFM, 2022)

Turkiya korporativ sukuk emissiyasi tahlil qilinadigan bo'lsa, mutloq ustunlik vakala sukuklarida ekanligini ko'rish mumkin (7-rasm). 2015-2021-yillarda Jami emissiya qilingan sukuklarning deyarli 95 foizi vakala sukuklari hissasiga to'g'ri keladi. Uning ulushi yildan yilga ortib bormoqda. 2015-yilda 68 foizni tashkil etgan bo'lsa 2021-yil yakuniga kelib 98 foizdan oshib ketdi. Undan so'ng murobaha va ijara sukuklari ham chiqarib boriladi. 2021-yilda sukukning istisna turi ilk bor chiqarilganligini kuzatish mumkin. Jahonda keng tarqalgan amaliyot singari emitentlar va investorlar Turkiyada ham vakala va murobaha sukuklarini ma'qul ko'rishadi.

Xulosa va takliflar.

Sukuk instrumentini mamlakat ichki talabini hisobga olib joriy qilgan mamlakatlar iqtisodiyot uchun qo'shimcha investitsiyalar jalb qilishga erishib kelmoqda. Bunda asosiy hajm musulmonalar ko'pistiqomat qiluvchi mamlakatlar hissasiga to'g'ri kelsa ham, emitent mamlakatlar qatorida musulmonlar kam istiqomat qiluvchi mamlakatlar mavjudligi mazkur instrumentdan har qanday iqtisodiyotda samarali foydalanish mumkinligini anglatadi. Jahonda samarali foydalani layotgan mazkur instrument uchun O'zbekiston Respublikasida ham talab katta deb hisoblaymiz. Uning aniq raqamlarini chiqarish uchun keng ko'lamli tadqiqot olib borish lozim.

Adabiyotlar/Литература/Reference:

IFDI (2022) Islamic Finance Development Report 2022: Embracing change. The Islamic Corporation for the Development of the Private Sector and Refinitiv. p 80.

IIFM (2022) Sukuk report: A comprehensive study of the global sukuk market. International Islamic Financial Market, August, 11th edition. p 202.

Kamarudin, M.F., Kamaluddin, N., Manan, S. K. A., & Ghani, G. M. (2014) Defaulters profile in Malaysia Sukuk market. Procedia-Social and Behavioral Sciences, 145, 277-285.

Maghyereh, A., & Abdoh, H. (2021) Tail dependence between gold and Islamic securities. Finance Research Letters, 38, 101503.

Salisu, A.A., & Shaik, M. (2022) Islamic Stock indices and COVID-19 pandemic. International Review of Economics & Finance, 80, 282-293.

Security Commission of Malaysia. Annual Report 2022. P 222.

Аброров, С. (2021) Ислом молияси: Ўзбекистон учун янги имкониятлар. Экономика и образование, (4), 146-159.

Аброров, С., & Карабоев, Н. (2020) Қимматли қоғозлар бозорида сукукнинг ролига оид илмий-назарий мулоҳазалар ва унинг ўзига хос жиҳатлари. Экономика и образование, 1(1), 126-130.

Валиев, Б.Б. (2019) Жаҳон фонд бозорида сукукларнинг ривожланиш тенденцияси. Иқтисодиётда инновация. 8 б.